

RITORIKA – NOTIQLIK SAN’ATI

Saydazimova Dilnozakhon Kamoldin qizi

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 4-umumiy o'rta ta'lim

boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Notiqlik – birovni ishontirish maqsadida qo'llaniladigan san'at. Notiqlik bu ritorika, aktyorlik texnikasi(yetkazib berish) va manipulyatsiya usullarining uyğun kombinatsiyasi.*

Kalit so'zlar: *ritorika, notiqlik san'ati, nutq, so'z, ibora, qobiliyat, mahorat*

Ritorika avvalo insondagi mavjud qobiliyat va iste'dodni shakllantirishga qaratilgan soha. Ritorika notiqning iste'dodi, qobiliyatini o'rganuvchi ilm bo'lsa, nutq madaniyati adabiy til va uning me'yorlarini o'rganuvchi ilmdir. Ritorika murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi. Haqiqiy nutq katta mahorat va puxta tayyorgarlikning mahsulidir. Nutqiy chechanlik notiqlik alohida qobiliyatdir. Klassik ma'nodagi notiqlik bu alohida favqulodda san'atdir. Chinakam notiq notiqlik mahoratiga tabiiy qobiliyat bilan bir qatorda o'z tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishadilar. Oddiy, madaniy va savodli so'zlashni o'rgangan notiq, notiqlik san'atini egallashga birinchi qadam qo'ygan hisoblanadi.

Notiqlik san'ati – azaliy mumtoz fan sifatida butun borlig'i bilan aqlni charxlaydigan, jamiyat hayotini boshqarishda aql-farosat uskunasi bo'lib shaxsning shakllanishini uning so'zi, nutqiy mahorati orqali namoyon etib kelgan va jamiyat taraqqiyotining yanada farovonligi sari yetaklagan. Notiqlik san'atining asosini nutq tashkil etadi. Nutqning mantiqan to'g'ri, fikran aniq, tuzilishga ko'ra chiroyli va yo'nalishiga ko'ra maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi.

1. *Nutqning to'g'riligi.* Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur yetadi. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga qat'iy amal qilish talab qilinadi.

2. *Nutqning aniqligi.* Nutqning aniqligi so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim xususiyatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. Aniqlik nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan nutq predmetining ma'nosi bilan nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi.

3. *Nutqning tozaligi.* Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til me'yoriga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Nutqning sofliqiga, asosan, quyidagi ta'sir qiladi:

1. Shevalarga xos so'zlar, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi.

2. O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari.

3. Jargonlar

4. Vulgarizmlar

5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan “parazit” soʻzlar.

6. Kanselyarizmlar

4. *Nutqning mantiqiyligi.* Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari boʻlgan turli va aniqlik bilan chambarchas bogʻlangandir. Chunki grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlanganlugʻaviy birlik ham mantiqni buzilishiga olib keladi.

5. *Nutqning taʼsirchanligi.* Nutqning taʼsirchanligi deganda, asosan, ogʻzaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga koʻra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham eʼtiborga olinadi. Yaʼni bunda notiq tinglovchilarni bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilinayotganligicha nazorat qilish zarur boʻladi.

6. *Nutqning maqsadga muvofiqligi.* Nutqning maqsadga muvofiqligi juda muhimdir. Nutq madaniyati adabiy til meʼyorlarini puxta egallash va ulardan nutqda toʻliq foydalanish demakdir.

Notiqlik sanʼati “Ritorika” nomi bilan qadimiy tarixga ega. U avvalo qadimgi Rim va Afinada shakllangan boʻlsa ham, ungacha Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindistonda paydo boʻlganligi notiqlik tajribasidan maʼlum. U zamonlarda davlat arboblarning yuqori lavozimlarga koʻtarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bogʻliq boʻlgan. Notiqlik sanʼati sarkardalik sanʼati bilan teng qoʻyilgan. Bunga Demosfen va Sitseronlar hayoti yorqin misol boʻladi. Mashhur notiq Demosfen eramizdan oldingi 384-yil Afinada oʻziga toʻq oilada dunyoga keladi. Uning otasining ismi ham Demosfen boʻlib, qurol-yarogʻ ustaxonasining egasi boʻladi. Notiq 5 yoshida otasidan ajraladi. Bolalarning tarbiyasi va merosi togʻasiga vaqtinchalik topshiriladi. Togʻasi esa barcha boyliklarni qoʻlga kiritib olgach, bolalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Natijada Demosfen juda nimjon va kasalmand boʻlib oʻsadi. Demosfen voyaga yetgach, togʻasi unga qullari, uyi va uy jihozlari hamda pulning maʼlum bir qisminigina berib aldaydi. Demosfen togʻasidan mol-mulkning qolganini yaxshilikcha qaytarib berishini soʻraydi. Ammo topa bundan bosh tortganidan keyin u qolgan merosini sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun sud qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan birga, ravon soʻzlash, daʼvosining toʻgʻriligiga kishilarni ishontirish kerak edi. Shu sababli Demosfen notiqlik sanʼatini oʻrganish uchun oʻz davrining mashhur advokati Isey maktabida taʼlim olishga majbur boʻladi. U toʻrt yil davomida qunt bilan oʻqiydi va bu davrda koʻpgina yozuvchilarning asarlari bilan tanishib chiqadi. Demosfen oʻqishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surunkasiga boʻlgan kurash boʻlajak notiq xarakterini toblanishiga, bir soʻzli va matonatli boʻlishida katta rol oʻynaydi. Yosh notiqning birinchi nutqi kulgili xolda, toʻpalon, kulgi, kiyqiriq, xushtak chalib, masxaralash bilan qarshi olinadi. U oʻz nutqini tugatolmay minbardan tushishga majbur boʻladi. Demosfenning nutqini bunday kutib olinishi tabiiy xol edi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi – ovozi past va nutqi yomon boʻlgan, “R” xarfini talaffuz etolmas, gʻuldirab mujmal gapirar edi. Kifti asabiy ravishda titrab turgan. Demosfen oʻz nutqining kamchiliklarini boshqa takrorlamaslik uchun notoʻgʻri talaffuz

etayotgan soʻzlari ustida qayta – qayta mashq qila boshladi. Demosfen ovozi oʻstirish uchun ogʻziga mayda toshlarni solib, dengiz qirgʻogʻida nutq soʻzlardi va toʻlqin shovqin-suronni bosib ketishiga harakat qilardi. Kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday ildiradiki, uning oʻtkir uchi kiftga yaqin turadi va kifti titragudek boʻlsa, qilichning uchi tegib ogʻritardi. Shu yoʻsinda olib borilgan. Uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergan. Nihoyat bunga erishadi. U hech qachon tayyorgarliksiz nutq soʻzlamagan, har doim yozilgan nutqni oldindan yodlab olar edi. Uning mahoratiga, irodasiga hatto dushmanlari ham tan berishgan. Demosfen oʻzidan tajribaliroq boʻlgan opponentlarining jamoatda chechanlik bilan qilingan qochiriqlariga nisbatan taʼsirchanligini his qilagani bois, shunday chiqish usulini ishlab chiqdiki, unda hozirjavob aytishuvga deyarli oʻrin qolmasdi. Raqiblarining qiyqiriqlari va tanbehlari bepisandlikka uchrar yoki oldindan tayyorlab qoʻyilgan matnlar bilan yoʻqqa chiqarilardi.

Qobusnomada aytilishicha, birinchidan notiqlikni egallashning yoʻli tinimsiz mehnat, oʻrganishdir. Ikkinchidan, nutqing goʻzal boʻlsin. Soʻzning ikki tomoni bordir: biri goʻzal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan soʻzing goʻzal boʻlsin, bu soʻzni xalq qabul qilsin.

Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga toʻgʻri yoʻl topa bilish, shaqlga eʼtibor berish masalasi, Yani bir soʻzni bir ibora bilan aytsa eshitgan kishining koʻngli parishon boʻladi, shu soʻzni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining koʻngli baxra oladi.

Toʻrtinchidan, har bir soʻz toʻgʻri va asosli boʻlmogʻi lozimligi uqtiriladi.

Beshinchidan, bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm maʼrifatni bilaman deb daʼvo qilsang hech narsa hosil boʻlmaydi va bexuda zaxmat chekasan.

Oltinchidan: ilgari oʻylash bir nav karomatdir. Yaʼni tayyorgarliksiz nutq boʻsh chiqadi.

Yettinchidan: kamtarlikin ulugʻlab: Xar qancha dono boʻlsang ham, oʻzingni nodon bilgil, toki senga ilm oʻrganish eshigi ochiq boʻlgay.

Sakkizinchidan: Amaldorlar bilan amaldordek, oddiy odamlar bilan oddiy odamlardek soʻzlashgil, donishmandlik chegarasidan chiqma, soʻzingni eshitgan kishiga ogʻir tuyulmasin.

Toʻqqizinchidan; nutqda qisqalik va aniqlik boʻlishi kerakligi aytadi. Koʻp bilu, oz soʻzla. Shunday soʻzlagilni, soʻz bekor ketmasin.

Oʻninchidan: Soʻz eshitishdan qochma, kishi soʻz eshitish bilan notiq boʻladi.

Odamlar orasida oʻzingni odamlardek tut, insonga insondek munosabatda boʻl.

Nutqni egallashdan maqsad, xalq diliga yoʻl topa bilishdir deb biladi va “agar koʻngillarga sevimli boʻlishni istasang, xaloyiqning maqsadini soʻzla”, – deydi.

Xulosa qilib aytganda, notiqlik sanʼati biz uchun har jabhada kerakdir. Chunki muomalani bilmagan inson koʻp narsalarda yutqizib qoʻyadi va ortda qolib ketadi. Hech qachon oʻrganishga kech boʻlmaydi, hatto mashhur notiqlarda ham bir talay kamchiliklari boʻlishiga qaramay, rivojlanishdan toʻxtab qolishmagan, doimo oʻz ustida ishlashi natijasida oʻz nomlarini tarix zarvaraqlariga muhrlab ketishgan. Shunday ekan, siz ham hech qachon rivojlanishdan, oʻz ustingizda ishlashdan toʻxtamang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wikipedia.uz
2. “Notiqlik san’ati 170 maslahat” “Turon zamin ziyo” Toshkent-2015 Ilhom Qahhorov
3. “Notiqlik fanidan darslar” Homidov Muhammadayub Toshkent-2017
4. “Notiqlik asoslari(o‘quv qo‘llanma)” Norqul Bekmirzayev Toshkent- 2006
5. “Ritorika” La’lixon Muhammadjonova Toshkent- 2019

